



THE ROLE OF THE EURASIAN ECONOMIC UNION IN THE INTEGRATION PROCESS: PROSPECTS AND CHALLENGES

Sarvar Foziljonov

Head of the Department for International Cooperation and Work with Ratings

Ministry of Culture

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Eurasian Economic Union, regional integration, economic cooperation, customs union, common market, geo-economics.

Received: 04.03.26

Accepted: 05.03.26

Published: 06.03.26

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the role of the Eurasian Economic Union in regional and global integration processes. The study examines the stages of its formation, institutional structure, mechanisms of economic integration, economic opportunities created for member states, and the existing challenges in the organization's activities, highlighting them from both theoretical and practical perspectives.

YEVROOSIYO IQTISODIY ITTIFOQINING INTEGRATSIYA JARAYONIDAGI O'RNI: ISTIQBOLLAR VA MUAMMOLAR

Sarvar Foziljonov

Madaniyat vazirligi Xalqaro hamkorlik va reytinglar

bilan ishlash bo'limi boshlig'i

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi, mintaqaviy integratsiya, iqtisodiy hamkorlik, bojxona ittifoqi, umumiy bozor, geoiqtisodiyot.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqining (YeOI) mintaqaviy va global integratsiya jarayonlaridagi o'rni har tomonlama tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida YeOIning shakllanish bosqichlari, institutsional tuzilmasi, iqtisodiy integratsiya mexanizmlari, a'zo davlatlar uchun yaratilayotgan iqtisodiy imkoniyatlar hamda tashkilot faoliyatida mavjud muammolar ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritiladi.

РОЛЬ ЕВРАЗИЙСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОЮЗА В ПРОЦЕССЕ ИНТЕГРАЦИИ: ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРОБЛЕМЫ

Сарвар Фозилжонов

Начальник отдела международного сотрудничества и работы с рейтингами

Министерства культуры

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Евразийский экономический союз, региональная интеграция, сотрудничество, таможенный союз, общий рынок, геоэкономика.	Аннотация:	В данной статье всесторонне анализируется роль Евразийского экономического союза в процессах региональной и глобальной интеграции. В рамках исследования рассматриваются этапы формирования Евразийский экономический союз, его институциональная структура, механизмы экономической интеграции, создаваемые экономические возможности для государств-членов, а также существующие проблемы в деятельности организации, которые освещаются с научно-теоретической и практической точек зрения.
------------------------	--	-------------------	--

Kirish. Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida mintaqaviy integratsiya jarayonlari davlatlarning iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omilga aylanmoqda. Globallashuv sharoitida davlatlar o'z manfaatlarini himoya qilish va savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish maqsadida turli integratsion tuzilmalarni shakllantirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YeOII) Yevroosiyo makonida iqtisodiy integratsiyaning o'ziga xos modeli sifatida namoyon bo'lmoqda.

YeOII 2015-yilda tashkil etilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi a'zo davlatlar o'rtasida yagona iqtisodiy makon yaratish, tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchining erkin harakatini ta'minlashdan iboratdir. Mazkur maqolaning maqsadi YeOIIning shakllanish bosqichlari, institutsional tuzilmasi, iqtisodiy mexanizmlari, tashqi hamkorlik yo'nalishlari hamda O'zbekiston uchun ehtimoliy ssenariylarni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

So'nggi yillarda Yevroosiyo ittifoqi O'zbekistonning eng muhim savdo hamkorlaridan biriga aylandi. 2024-yilda mamlakatning tashqi savdo aylanmasida Yevrosiyo ittifoqining ulushi 32,9 foizni tashkil etdi, shundan eksport 29,9 foiz, import esa 34,6 foizni tashkil etgan.¹ Bu shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston EAEU davlatlaridan sanoat mahsulotlari, xomashyo va texnologiyalarni faol import qilmoqda, biroq o'z navbatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari, meva-

sabzavot va oziq-ovqat tovarlari bilan bozorni ta'minlamoqda. Yevroosiyo ittifoqi mamlakatlari, xususan, Rossiya, Qozog'iston va Qirg'iziston O'zbekistonning asosiy savdo sheriklari hisoblanadi. 2024-yil boshida O'zbekistonning Yevroosiyo ittifoqi mamlakatlari bilan savdo hajmi 2,5 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi,² Ayniqsa, meva-sabzavot eksporti O'zbekistonning Yevroosiyo ittifoqi bozorida asosiy ustunligidir. Bu nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki ittifoq mamlakatlarining oziq-ovqat xavfsizligida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Geografik jihatdan O'zbekiston Markaziy Osiyoning yuragida joylashgan bo'lib, Sharq va G'arb, Shimol va Janub transport yo'laklarining kesishgan nuqtasida turadi. Shu sababli Yevroosiyo ittifoqi bilan transport-logistika sohasidagi hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi. Yevroosiyo taraqqiyot banki ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonning tranzit salohiyati mintaqa transport tarmoqlarini bog'lashda muhim halqa hisoblanadi.

Xususan, Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temiryo'l loyihasi bu borada eng muhim tashabbuslardan biridir. Loyihaning 2029-yilda ishga tushirilishi rejalashtirilmoqda va u Yevroosiyo ittifoqining "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi bilan uyg'unlashadi. Ushbu loyiha O'zbekistonni xalqaro logistika markazlaridan biriga aylantirishi kutilmoqda. Bundan tashqari, 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yevroosiyo ittifoqi Oliy kengashi yig'ilishida qatnashib, transport aloqalarini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratdi.³ O'zbekistonning Yevroosiyo ittifoqi bilan hamkorligi infratuzilma va investitsiya loyihalarida ham sezilarli natijalar bermoqda. 2024-yilda O'zbekiston hukumati va Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi o'rtasida 2024–2026-yillarga mo'ljallangan hamkorlik rejasi imzolandi. Unga ko'ra, bojxona, transport, energetika, texnik regulatsiya, qishloq xo'jaligi va makroiqtisodiy siyosat bo'yicha hamkorlik ko'zda tutilgan.

Shuningdek, O'zbekiston 2025-yilda Yevroosiyo Taraqqiyot Bankiga qo'shildi va bankning 10 foizlik ulushiga ega bo'lib, uchinchi yirik aksiyador sifatida ishtirok etmoqda.⁴ Bu mamlakatga yirik infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatini beradi. Misol uchun, transport va energetika sohalarida o'nlab loyihalar qo'llabquvvatlanishi rejalashtirilmoqda.

Biroq, Yevroosiyo ittifoqiga to'liq a'zolik masalasi O'zbekistonda keng muhokama qilinmoqda. 2024-yil oktyabrda parlament a'zosi Akmal Saidov mamlakat Yevroosiyo ittifoqiga to'liq a'zo bo'lmashligini ma'lum qilib, Qozog'iston misolida bu qarorning iqtisodiy foydasi cheklanganligini ta'kidladi.⁵ Jamiyatda ham ushbu masalaga turlicha qarashlar mavjud. Bir tomondan, to'liq a'zolik orqali bojxona to'siqlari kamayishi va savdo kengayishi mumkin. Ikkinchi tomondan esa, bu O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini cheklashi ehtimoli ham yo'q emas. Shu bois, kuzatuvchi maqomi mamlakat uchun optimal variant sifatida qaralmoqda.

Materiallar va usullar. Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli-tahliliy, taqqosiy va institutsional yondashuvlardan foydalanildi. YeOIIning rivojlanish bosqichlari va integratsion mexanizmlarini o'rganishda rus va g'arb ilmiy maktablari vakillarining ishlari asos qilib olindi. Jumladan, E. Vinokurov, R. Dragneva, K. Wolczuk, A. Libman, K. Kirkham kabi tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari tahlil qilindi.

Shuningdek, Eurasian Development Bank tahliliy hisobotlari, YeOII institutsional hujjatlari va xalqaro iqtisodiy integratsiya nazariyalari metodologik manba sifatida qo'llanildi.

Tadqiqot doirasida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- tarixiy-genetik tahlil (YeOIIning shakllanish bosqichlari);
- institutsional tahlil (boshqaruv organlari va qarorlar mexanizmi);
- komparativ tahlil (rus va g'arb ekspertlari yondashuvlari);
- ssenariy modellashtirish (O'zbekiston uchun 2025–2030 yillar istiqbollari).

Results

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, YeOII 2010-yilda Rossiya, Belarus va Qozog'iston o'rtasida Bojxona ittifoqining tashkil etilishi bilan boshlangan integratsion jarayonlarning mantiqiy davomi hisoblanadi. 2012-yilda Yagona iqtisodiy makon bosqichiga o'tilgan va 2015-yildan boshlab YeOII rasman faoliyat yurita boshlagan. Keyinchalik Armaniston va Qirg'iziston a'zo sifatida qo'shilgan.

YeOIIning asosiy yutuqlari:

- yagona bojxona hududining shakllantirilishi;
- umumiy texnik reglamentlar tizimining joriy etilishi;
- mehnat migratsiyasi rejimining soddalashtirilishi;
- transport-logistika va energetika sohalarida kooperatsiya kuchayishi.

Tashqi hamkorlik doirasida YeOII Yevropa Ittifoqi, ASEAN hamda Xitoy bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga intilmoqda. Xususan, Xitoyning "Bir makon – bir yo'l" tashabbusi bilan uyg'unlashuv YeOIIning geoiqtisodiy ahamiyatini oshirmoqda.

O'zbekiston uchun uchta ehtimoliy ssenariy aniqlandi:

1. Pragmatik hamkorlik (eng maqbul) – kuzatuvchi maqomi va sektorlar kesimidagi hamkorlikni kengaytirish;
2. Cheklangan chuqurlashuv – ayrim tarmoqlarda preferensial integratsiya;
3. To'liq a'zolik (yuqori xatarli) – bojxona va savdo siyosatida suverenitet qisqarishi.

Muhokama. Rus tadqiqotchilari YeOIIning bosqichma-bosqich chuqurlashayotgan iqtisodiy loyiha sifatida baholaydilar. Ularning fikricha, integratsiya pragmatik manfaatlarga asoslangan bo'lib, tranzaksiyon xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

G'arb olimlari esa YeOIIning institutsional zaifligi, iqtisodiy assimetriya va siyosiy omillar ta'sirini asosiy cheklov sifatida ko'rsatadilar. Ularning nuqtayi nazariga ko'ra, integratsiya funksional sohalarda saqlanib qoladi, biroq chuqur iqtisodiy uyg'unlashuv siyosiy risklar bilan chegaralanadi.

O'zbekiston uchun masala mafkuraviy emas, balki iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan baholanishi zarur. Mamlakatning JSTga a'zo bo'lish jarayoni, ochiq iqtisodiyot modeli va ko'p vektorli tashqi siyosati selektiv va bosqichma-bosqich integratsiyani maqsadga muvofiq qiladi.

Ekspertlarning ta'kidlashlaricha, bu borada Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YEOII) sobiq ittifoq hududidagi omadli va istiqbolli integratsiya loyihasidir. 1995-yilda Rossiya Federatsiyasi va Belarus Respublikasi o'rtasida imzolangan "Bojxona ittifoqi to'g'risida"gi bitimga asoslangan va keyinchalik o'z tarkibiga Qozog'iston, Qirg'iziston hamda Armanistonni birlashtirgan Yevrosiyo iqtisodiy hamjamiyati, o'zining shakllanish tarixi va rivojlanish amaliyotiga ko'ra, jahon hamjamiyatining diqqat markaziga tushdi.

Hozirgi kunda dunyoda 5 ta asosiy iqtisodiy blok mavjud bo'lib, ular Yevropa Ittifoqi, MERCOSUR - Janubiy Amerika davlatlarining davlatlararo iqtisodiy birlashmasi, NAFTA – Shimoliy Amerika erkin savdo zonasi, ACEAN – Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari uyushmasi va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YEOII) hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqi dunyodagi eng rivojlangan mintaqaviy integratsiya bloki hisoblanadi. Integratsiyaning barpo etilishi sohasidagi rejali va tizimli ishlar Yevropa ittifoqi doirasida iqtisodiy va siyosiy ittifoq tuzish shaklida o'zining ijobiy natijalarini berdi. Bojxona ittifoqi va Yevropa ittifoqining hozirgi shaklda muvaffaqiyatli shakllanishi, barcha muammolarga qaramay, Yevropada integratsiya jarayonining hayotiyligini tasdiqlamoqda.

MERCOSUR – Lotin Amerikasi va Karib dengizi havzasi aholisining 55,3 foizini (300 milliondan ortiq) qamrab olgan bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning 40 foizini, mintaqada mamlakatlari tashqi savdosining 33 foizini tashkil etadi. Mazkur uyushma a'zolarining umumiy yalpi ichki mahsuloti 3,3 trln.dollarni tashkil qiladi va hajmi hamda iqtisodiy salohiyati bo'yicha Yevropa Ittifoqidan keyin ikkinchi, erkin savdo hududi hajmi bo'yicha Yevropa Ittifoqi va NAFTA dan keyin uchinchi o'rinni egallaydi.

ACEAN uyushmasi Janubiy-Sharqiy Osiyodagi 10 ta davlat (Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tailand, Filippin, Bruney, Vyetnam, Laos, Myanma va Kambodja)ni birlashtirgan. Hozirgi kunda ACEANGa a'zo davlatlarning aholisi qariyb 500 million kishiga yetgan, umumiy yalpi ichki mahsuloti esa 737 mlrd.dollarini tashkil etmoqda.

Umuman, dunyo davlatlarining iqtisodiy integratsiyaga moslashuvi qanday omillarga asoslanmoqda, ularning birlashuviga qanday sabablar ta'sir ko'rsatmoqda? Eng asosiy sabab, birinchidan, iqtisodiy hayotning globallashuvi, ikkinchidan esa xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvidir. Shuningdek, dunyo miqyosidagi ilmiy va texnologik inqiloblar va milliy iqtisodiyotlarning ochiqqligini oshirishga ehtiyoj ham mamlakatlarning o'zaro integratsiyalashuviga sabab bo'lmoqda.

Shu jihatdan qaraganda, bugun turli bahs-munozaralarga turtki bo'layotgan masala – O'zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YEOII)ga a'zo bo'lishi yuzasidan fikr-mulohazalarimizni bildirishni joiz, deb bildik.

Bu o'rinda, eng avvalo, YEOII doirasidagi tashkiliy-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi organlar va ularning faoliyati, hamkorligining huquqiy asoslari, o'zaro kelishuv va bitimlarni chuqur tahlil qilish maqsadgamuvofiqdir.

Ta'kidlash lozim, YEOIIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iziston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.

Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqining oliy organi a'zo davlatlar rahbarlari tarkibidan tashkil topgan Oliy Yevroosiyo Iqtisodiy Kengashi (OYEIK) hisoblanadi. Kengash ittifoq faoliyatining asosiy masalalarini ko'rib chiqadi, integratsiyani rivojlantirish strategiyasi, yo'nalishlari va istiqbollari belgilaydi.

YEOII Shartnomasi, YEOII doirasidagi xalqaro kelishuvlar va Oliy Kengash qarorlarining bajarilishi va monitoringi a'zo davlatlar hukumat rahbarlaridan iborat Hukumatlararo Kengash tomonidan ta'minlanadi.

YEOII Sudi – doimiy faoliyat yurituvchi sud organi hisoblanib, uning shtab-kvartirasi Minsk shahrida joylashgan. U a'zo davlatlar tomonidan YEOII Shartnomasi tartib-qoidalaridan teng ravishda foydalanilishini ta'minlaydi va nizolarni hal qiladi.

Yevroosiyo Iqtisodiy Komissiyasi iqtisodiy ittifoqning 170 tadan iborat funksiyalarini bajaradi:

Jumladan, bojxona-tarif va notarif tartibga solish; bojxona ma'murchiligini tartibga solish; sanitariya, veterinariya va fitosanitariya chora-tadbirlarini tartibga solish; uchinchi mamlakatlarga nisbatan savdo rejimlarini o'rnatishni tartibga solish; makroiqtisodiy va raqobat siyosatini belgilash; sanoat va qishloq xo'jaligiga subsidiyalar, tabiiy monopoliyalar, davlat xaridlari, transport va tashishga oid chora – tadbirlarni tartibga solish va boshqalar.

Shu o'rinda, ayrim faktlarni ham keltirib o'tish o'rinli. Ya'ni, YEOIIni tashkil etuvchi beshta a'zo davlat hudud, aholi soni va iqtisodiyot hajmi jihatidan bir-biridan keskin farq qiladi. Ittifoqning eng katta mamlakati Rossiya, eng kichigi Armanistondan 574-marta kattaroqdir va shunga o'xshash, Rossiyaning yalpi ichki mahsuloti (YAIM) Armanistondan 170 baravar katta. Umuman, Rossiyaning YAIMi qolgan to'rt a'zoning umumiy YAIMidan taxminan 6 baravar katta. To'rt a'zo davlat – Armaniston, Belarus, Qozog'iston va Qirg'izistonning umumiy aholisi qariyb 42 million, Rossiya aholisi esa 147 millionga yaqin.

Shu jihatdan qaraganda, umumiy YAIMning 87 foizi, umumiy aholining 80 foizi Rossiya Federatsiyasi hissasiga to'g'ri kelishi hamda YEOIIga a'zo davlatlarning iqtisodiy jihatdan baravar emasligi Rossiyaning dominantlik pozitsiyasini namoyon etadi.

Shu bilan birga, Yevrosiyo Iqtisodiy Komissiyasining prinsiplariga ko'ra, mazkur Komissiya qarorlarni teng vakillik va konsensus prinsipi asosida qabul qilishi - har bir davlatga uning iqtisodiy kuchi va aholisi soni katta-kichikligiga nisbatan emas, balki teng a'zo sifatida qaralishi ko'rsatib o'tilgan.

Shuningdek, ayrim ekspertlar tomonidan YEOII tuzilmasiga iqtisodiy blok sifatida emas, balki ko'proq siyosiy blok sifatida qaraladi. O'z navbatida, Yevroosiyo Iqtisodiy Komissiyasi vakolatlari doirasida siyosiy masalalar ushbu Komissiya vakolatiga kirmasligi ham belgilab qo'yilgan.

Hozirgi vaqtda YEOII tomonidan xorijiy sheriklar bilan hamkorlik aloqalari Jahon Savdo Tashkiloti (JST) normalari va tamoyillariga muvofiq tarzda o'rnatilgan.

Kuzatuvchilik maqomi. 2017-yil aprel oyida Moldova Respublikasi bilan hamkorlik to'g'risida memorandum imzolandi, YEOII mamlakatlari prezidentlari Moldovaning Ittifoqda kuzatuvchi mamlakat maqomini olish to'g'risidagi murojaatini qabul qildilar. 2018-yil may oyida Moldovaga YEOIIda kuzatuvchi davlat maqomi berildi.

Erkin savdo zonasi kelishuvlari. 2017-2018-yillarda YEOII uchinchi davlatlar bilan xalqaro iqtisodiy aloqalarni sezilarli darajada kengaytirishga muvaffaq bo'ldi. Bugungi kunga qadar Vyetnam (2016-yil oktyabr) va Singapur (2018-yil noyabr) bilan erkin savdo zonasi to'g'risidagi, Xitoy bilan iqtisodiy hamkorlik (2017-yil) to'g'risidagi bitimlar imzolangan, Eron bilan esa mazkur maqsadda vaqtinchalik bitim (2018-yil) imzolangan.

Shuningdek, yana qator davlatlar bilan erkin savdo zonasi kelishuvini amalga oshirish bo'yicha muzokaralar olib borilmoqda.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, YeOII Yevroosiyo makonida iqtisodiy integratsiyaning amaliy mexanizmlariga ega bo'lgan, biroq institutsional jihatdan to'liq

shakllanmagan tuzilma hisoblanadi. Uning iqtisodiy pragmatizm va geosiyosiy omillar uyg'unligidagi ikki tomonlama tabiati mavjud.

O'zbekiston uchun eng maqbul strategiya – "ochiq eshiklar, ammo yopiq majburiyatlar" tamoyiliga asoslangan pragmatik hamkorlik modelidir. Bu yondashuv mamlakatga iqtisodiy manfaatlarni maksimal darajada qo'lga kiritish bilan birga, milliy suverenitet va mustaqil iqtisodiy siyosatni saqlab qolish imkonini beradi.

O'zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan hamkorligi mamlakat uchun muhim iqtisodiy va geosiyosiy ahamiyat kasb etadi. Kuzatuvchi davlat maqomida bo'lish O'zbekistonga integratsiya jarayonlaridagi afzalliklarni sinchiklab o'rganish, savdoiqtisodiy aloqalarni kengaytirish hamda yangi transport-logistika yo'laklarini shakllantirish imkonini bermiqda. Shu bilan birga, to'liq a'zolik masalasida ehtiyotkorlik bilan yondashilayotgani mamlakatning iqtisodiy manfaatlari va siyosiy mustaqilligi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Kelgusida O'zbekiston Yevroosiyo ittifoqi bilan hamkorlikni chuqurlashtirish orqali eksport salohiyatini oshirish, investitsiya oqimini jalb etish va hududiy infratuzilmani rivojlantirish imkoniyatlariga ega. Shu sababli, hamkorlik jarayonini bosqichma-bosqich rivojlantirish, milliy manfaatlarni ustuvor qo'ygan holda, Yevroosiyo iqtisodiy makonida O'zbekistonning mavqeini yanada mustahkamlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vinokurov, E. (2018). Eurasian Economic Union: Current State and Preliminary Results. Eurasian Development Bank.
2. Dragneva, R., & Wolczuk, K. (2017). The Eurasian Economic Union: Deals, Rules and the Exercise of Power. Chatham House.
3. Libman, A. (2019). Eurasian Integration: Economic Rationale and Political Constraints. Palgrave Macmillan.
4. Eurasian Development Bank (2021). EAEU and Central Asia: Opportunities and Risks.
5. Kirkham, K. (2016). The Eurasian Economic Union: Power, Politics and Trade. Palgrave Macmillan.